

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH”**

Volume 11. November 2024

**O‘ZBEK XALQ ETNOPEDAGOGIKASINING TARIXIY MASALALARI
VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI**

FarDU Pedagogika yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Najmiddinova Saodat Abduvohid qizi

Annatatsiya: mazkur maqolada, dastlab etnopedagogika nima ekanligi, uning mazmuni, ahamiyati va asosiy vazifalari haqida aytib o‘tilgan, shu bilan birga, o‘zbek xalq etnopedagogikasining tarixiy masalalari hamda rivojlanish bosqichlari haqida ham keltirib o‘tilgan.

Аннотация: в данной статье, прежде всего, упоминается, что такое этнопедагогика, ее содержание, значение и основные задачи, одновременно затрагиваются исторические вопросы и этапы развития этнопедагогики узбекского народа.

Annotation: in this article, first of all, what ethnopedagogy is, its content, importance and main tasks are mentioned, at the same time, historical issues and stages of development of the ethnopedagogy of the Uzbek people are mentioned.

Kalit so‘zlar: etnopedagogika, ateizm, klassik epopeya, pedagogic madaniyat, klassik pedagog, didaktik imkoniyat.

Ключевые слова: этнопедагогика, атеизм, классический эпос, педагогическая культура, классический педагог, дидактическая возможность.

Key words: ethnopedagogy, atheism, classical epic, pedagogical culture, classical pedagogue, didactic possibility.

KIRISH

Etnopedagogika—etnik guruhlarning ta’lim-tarbiya borasidagi tajribalari, oila, urug‘, avlod, millatning qadimiy qadriyatlariga ma’naviy, botiniy va zohiriylar qarashlari haqidagi fandir. U xalq pedagogikasidan zamонави sharoitlarda foydalanish yo‘llarini ko‘rsatadi, etnik guruhlarning bu boradagi tajribalarini yig‘adi va tatbiq etadi. U turli xalqlarning tarbiyaviy tajribasi, madaniy merosi, ma’naviy qadriyatlari va xalq pedagogikasidagi usullarini o‘rganish orqali shaxsni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 11. November 2024

Etnopedagogikaning asosiy mazmuni

- Xalq tajribasi:** etnopedagogika xalqning ko‘p asrlik tajribasiga asoslanib, avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan ta’lim va tarbiya usullarini tadqiq etadi.
- Madaniy merosi:** xalq og‘zaki ijodi (ertaklar, qo‘shiqlar, maqollar, afsonalar va rivoyatlar) orqali yosh avlodni axloqiy, estetik va ma’naviy tarbiyalashni o‘z ichiga oladi.
- Urf-odatlar va qadriyatlar:** turli xalqlarning turmush tarziga xos bo‘lgan urf-odatlar, qadriyatlar va marosimlar orqali yoshlarni jamiyatga moslashishga va ularda milliy o‘zlikni shakllantirishga xizmat qiladi.
- Tabiiy va ijtimoiy muhit:** har bir xalqning tabiiy-geografik sharoitlari va ijtimoiy muhitiga mos tarbiyaviy usullarni shakllantirish.

Etnopedagogikaning asosiy vazifalari

- Xalq tajribasini o‘rganish:** har bir xalqning tarbiyaviy merosini chuqur o‘rganish va uni zamonaviy pedagogic jarayonga tatbiq etish.
- Milliy qadriyatlarni tarbiya jarayoniga kiritish:** milliy qadriyatlar va an’analarni yoshlar tarbiyasida qo‘llash orqali ularning madaniy o‘zligini rivojlantirish.
- Xalq pedagogikasini moddernizatsiya qilish:** xalq tarbiya usullarini zamonaviy pedagogik tehnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish.

Etnopedagogikaning ahamiyati

- Milliy o‘zlikni shakllantirish:** yoshlar o‘z milliy qadriyatlari, urf-odatlari bilan tanishib, ularni qadrlashi orqali milliy o‘zligini anglaydi.
- Axloqiy tarbiya:** etnopedagogika odob-axloq qoidalari, o‘zaro hurmat va hamjihatlik kabi qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirishga yordam beradi.
- Madaniy merosni asrash:** xalq pedagogikasidagi an’anaviy bilim va tajribalarni saqlab qolish va kelajak avlodga yetkazish.

Etnopedagogika millatning ma’naviy merosini asrab-avaylash va yosh avlodni ana shu qadriyatlarni asosida tarbiyalashga qaratilgan bo‘lib, zamonaviy pedagogik jarayonlarni milliylik bilan boyitish imkonini beradi.

Xalq pedagogikasi tom ma’nosи bilan umuminsoniy, xalqchil pedagogikadir. Uni xalqlar tarixi, xalq falsafasi, psixologiyasi, etnografiyasi va xalq tibbiyotidan tashqarida tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shuningdek, xalq pedagogikasi o‘zining udumshunoslik, elshunoslik, qadrshunoslik, ruhshunoslik, mumtoz adabiyot, san’at, og‘zaki ijod kabi fan sohalaridagi eng yaxshi namunalarni, hayotning, tafakkurning, odob-axloq, ta’lim-tarbiyaning hamma jabhasini qamrab oladi. Xalq pedagogikasining bunchalik ta’sir

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 11. November 2024

kuchi, ahamiyati va yashovchanligining boisi, “birinchidan, uning hayotiyligi, ta’sirchanligi, serqirra, serma’noligida bo’lsa, ikkinchidan, uning bevosita xalq tomonidan mavjuda hayot jarayonida jonli an’analarda yaratilishi, hayot, insonmuammolarini qamrab olishi, tarbiyaning eng dolzARB masalalari yechimini hal qilishga qaratilgani, uchinchidan, umuminsoniy yo‘nalishga, umumbashariy g‘oya va maqsadlarga qaratilganidadir”.

Vatanimizga mukammal, axloqan pok, har tomonlama yetuk, o‘z xalqi va vataniga fidoiy, jismoniy barkamol yoshlarni tarbiyalashda xalq pedagogikasining barcha imkoniyatlaridan foydalanish masalalari mazkur fanni o‘rganish maqsadini belgilab beradi. Chunonchi milliy va ma’naviy qadriyatlar mohiyatini kelgusi avlodga tushuntirish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ma’lumki qadriyatlarni yaratuvchi ham, avloddan-avlodga yetkazuvchi ham xalqning o‘zi. Shu bois ham xalq pedagogikasida qadriyatlar pedagogik jihatdan keng o‘rganiladi, bunda ular quyidagi shakllarda namoyon bo‘ladi: oilaviy qadriyatlar, mehnat qadriyatlari, maishiy turmushni ifodalovchi qadriyatlar, ijtimoiy-siyosiy mazmundagi qadriyatlar, madaniy-ma’rifiy qadriyatlar, badiiy-estetik qadriyatlar, sog‘lom turmush tarziga oid qadriyatlar, ma’naviy-ruhiy qadriyatlar.

Etnopedagogikaning tarbiyaviy imkoniyatlari deganda xalq tarbiya tajribasidan joy olgan eng ilg‘or pedagogik bilimlar, malaka va ko‘nikmalar, zamonaviy o‘quv dargohi va oila tarbiyaviy tizimida yoshlarni tarbiyalash maqsad va vazifalarini hal etish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish tushuniladi. Masalan, xalq maqollarining tarbiyaviy imkoniyatlari tarbiyaning asosiy maqsadidan kelib chiqadi. Tarbiyaning asosiy maqsadi esa har tomonlama yetuk inson, yuksak ma’naviyatishaxsni shakllantirishdir. Chunonchi, xalq pedagogikasi qadriyatlari ma’naviy yetuk, malakali mutaxassislarni tayyorlash, barkamol shaxs tarbiyasi hamda ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirish imkoniyatlarini yaratib beruvchi manbadir.

Etnopedagogikaning didaktik imkoniyatlari deganda xalqning yoshlarga bilim amaliy ko‘nikmalar berish, ularni ijodiy ishlash uslublari bilan qurollantirish, dunyoqarashlarini o‘sirish, axloqiy nafosat g‘oyalarini egallashlarida qo‘llab kelgan empirik pedagogic tajribasini zamonaviy milliy ta’lim jarayonida qo‘llash uchun qulayligi tushuniladi. Masalan, milliy amaliy san’atga o‘rgatish uslubiyotini xalq pedagogikasining didaktik imkoniyatlari doirasiga kiritish mumkin.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 11. November 2024

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Etnopedagog G. N. Volkovning ta'kidlashicha, “Har bir xalqning kuchli va o‘ziga xos jihatlarini ta'kidlovchi stereotip tavsiflar hozirgi kungacha o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas”.¹ Nemischa batartiblik, amerikacha ishbilarmonlik, fransuzcha xushmuomalalik, inglizcha rasmiyatchilik, o‘zbekcha mehmondo‘stlik kabi ijobjiy fazilatlar shular jumlasidandir.

O‘tmishning buyuk pedagoglari xalqning pedagogik qarashlari va pedagogic tajribalarni o‘rganishga juda ko‘p e’tibor berganlar. Klassik pedagoglarning ta’kidlashicha, xalq pedagogikasi tarbiya haqidagi fanni boyitadi, uning tayanchi va asosi bo‘lib xizmat qiladi. Xalq pedagogikasi o‘z navbatida etnopedagogikaning predmetidir. U pedagogik fanlarning yuzaga kelishi va rivojlanishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Badiiy adabiyotning yaratilishi bilan og‘zaki ijod bartaraf etilmagani kabi pedagogik fanlar ham xalqning kundalik hayotidan pedagogic qarashlarni siqib chiqara olmadi. Pedagogik fanlar va xalq pedagogikasi o‘zaro munosabatga kirishdi, bir-birining rivojlanishiga yaxshi ta’sir qildi va buning natijasi o‘laroq pedagogik madaniyat vujudga keldi.

Xalqlarning pedagogik madaniyati bilan juda qiziqqan rus yozuvchisi V.G.Belinskiy: “Har bir millatning o‘ziga xosligi, asosan, faqat shu millatga xos dunyoqarash, din, til, urf-odatlar va an’analardir”,—deydi. O‘tmishda yig‘ilgan ma’rifiy boyliklarni buyuk faylasuf Gegel “o‘zidan kuch taratuvchi ona yer” bilan taqqoslagan. Uning ta’kidlashicha, “ilm-fan va ta’limning har bir yangiligi uning qadimiyligka murojaatidan kelib chiqadi”. Demak, madaniyatning, jumladan, pedagogic madaniyatning an’anaviyligi xalqlarning yuqori madaniyatining muhim belgisidir. Buyuk alloma Abu Nasr Farobiy: “Xalqlarning o‘z qadimiy madaniyatiga e’tibori va qiziqishning uyg‘onishi ularning haqiqiy donoligidan dalolatdir”,—deydi.²

Demak, **xalq pedagogikasi** xalq ommasining turmush faoliyati jarayonida to‘plangan va avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan tarbiya borasidagi tajriba va bilimlari yig‘indisidir.

Folklorshunos T. Mirzayev ta’rifi bilan aytganda: “Xalqimiz antik davr va o‘tgan asrlarning klassik epopeyalari—“Illiada” va “Odisseya”, “Mahobharat” va “Ramayana”, “Ilg‘or jangnomasi” va “Shohnoma”, “Manas” va “Jangar” kabi shoh asarlar bilan bellasha oladigan va ular bilan teng turgan hayratomuz dostonlarga, rang-

¹ Волков Г. Н. Этнопедагогика. Т.:Фан, 2000.

² Abu Nasr Farobiy. Risolalar. T.:Fan,1975.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 11. November 2024

barang ertaklarga, xalqning hayot tajribalarini o‘zida mujassamlashtirgan ajoyib maqol va matallarga, juda ko‘p topishmoqlar, latifalarga egaki, bular ma’naviy boyligimiz, zo‘r iftixorimizdir”.³

O‘rta Osiyo xalqlari, shu jumladan, o‘zbek xalqii boshqa xalqlar kabi moddiy-ma’naviy boyliklar yaratuvchi ijodkor xalq. Ko‘p qirrali tarixiy va boy madaniyatning ajralmas qismi bo‘lgan xalq pedagogikasini o‘rganish orqali kamolotga erishgan ajdodlarimiz, buyuk allomalarimizning ilm-fan, san’at va adabiyot sohasidagi durdonalari uzoq asrlar davomida jahon madaniyati xazinasidan o‘ziga munosib o‘rin egallagan.

NATIJA VA MULOHAZALAR

O‘zbek xalq etnopedagogikasi—bu o‘zbek xalqining ko‘p asrlik tarbiyaviy tajribasiga, an’analariga, urf-odatlariiga va ma’naviy qadriyatlariga asoslangan pedagogik qarashlar tizimidir. O‘zbek xalq etnopedagogikasining rivojlanish jarayoni turli tarixiy davrlarda o‘ziga xos bosqichlarni bosib o‘tgan va har bir bosqich o‘zbekxalqining madaniy, ijtimoiy siyosiy rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq.

O‘zbek xalq etnopedagogikasining tarixiy masalalari

1. **Og‘zaki xalq ijodiyoti va qadriyatlar tizimi:** o‘zbek xalq etnopedagogikasi, asosan, og‘zaki xalq ijodi orqali shakllangan. Maqollar, matallar, ertaklar, qo‘sliqlar va dostonlar yoshlarni axloqiy, estetik va ma’naviy jihatdan tarbiyalashda muhim vosita bo‘lib xizmat qilgan.

2. **Axloqiy va diniy tarbiya:** o‘zbek xalq etnopedagogikasida islom dini asoslari, uning axloqiy me’yorlari katta rol o‘ynagan. Xalq orasida diniy qadriyatlar bolalarni to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirish, halollik,adolat va yaxshilikka chaqirish vositasi sifatida tarbiyaviy jarayonning ajralmas qismi hisoblangan.

3. **Mehnat va kasb-hunar tarbiyasi:** o‘zbek xalqida mehnatni qadrlash va kasb-hunar o‘rganish alohida ahamiyat kasb etgan. Kasbiy mahorat avloddan-avlodga o‘tilgan, usta-shogirdlik munosabatlari esa yoshlarni tarbiyalashning muhim yo‘nalishi bo‘lgan.

O‘zbek xalq etnopedagogikasining rivojlanish bosqichlari

1. Qadimiy davrlar (ilk bosqich):

• Mahalliy urf-odatlari va an’analar: qadimgi o‘zbek xalqining tarbiyasi qabila va urug‘jamoalarining urf-odatlari asosida shakllangan. Bolalar, asosan, oilada va

³ T. Mirzayev. Xodi Zarif. T.:G. G‘ulom, 1967.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 11. November 2024

jamoada tarbiyalangan. Og‘zaki ijodiyot (ertak va rivoyatlar) tarbiyaning muhim vositasi bo‘lgan.

• Tabiat bilan uyg‘unlik: ushbu davrda o‘zbek xalqining hayoti va tarbiyasi tabiat bilan bog‘liq bo‘lib, bolalarni hayotga tayyorlashda tabiat hodisalari, hunarmandchilik, chorvachilik va dehqonchilik o‘rgatilgan.

2. Islom davriga o‘tish(o‘rta asrlar bosqichi):

• Diniy ta’lim va tarbiya: islom dinining kirib kelishi bilan tarbiyaviy jarayon diniy ta’limotlarga asoslanib rivojlangan. Madrasa va maktablarda diniy ta’lim berilib, axloqi qadriyatlar bolalarga singdirilgan. Shaxsni pok, axloqli, halol bo‘lishiga undagan Qur’on va hadislар ta’lim jarayonining asosiy manbalaridan bo‘lgan.

• Buyuk allomalar ta’siri: al-Farobiy, al-Beruniy, ibn Sino, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy kabi allomalarining ilmiy va pedagogic asarlari milliy tarbiya tizimining shakllanishiga katta hissa qo‘sghan ularning pedagogik qarashlari xalq pedagogikasining rivojlanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan.

3. O‘zbek xonliklari va xalq pedagogikasi (XVI-XIX asrlar):

• Mahalliy madrasalar va oila tarbiyasi: bu davrda o‘zbek xonliklaridagi ta’lim va tarbiya madrasa va oilalar orqali amalga oshirilgan. Yoshlar diniy bilimlar, adabiyot, tarix va madaniyatni o‘rganishgan. Oilaviy muhitda ota-onalar va kattalar yoshlarga urf-odatlar, kasb-hunar va ijtimoiy ko‘nikmalarni o‘rgatgan.

• Axloqiy va jismoniy tarbiya: yoshlar jismonan va axloqan kuchli bo‘lishi uchun xalq o‘yinlari, kurash va boshqa sport turlariga jalb etilgan.

4. Sovet davri (XX asrning 1-yarmi):

• Davlat ta’lim tizimi: sovet ittifoqi davrida etnopedagogika yo‘q qilinib, davlat tomonidan bir xil ta’lim tizimi joriy etildi. Shunga qaramay, xalq og‘zaki ijodiyotining ko‘plab elementlari saqlanib qolgan. Oila va jamiyatdagi xalq an’analari hamon tarbiya jarayonida muhim rol o‘ynagan.

• Ateizm ta’siri: diniy ta’lim va qadriyatlar davlatt tomonidan cheklangan bo‘lsada, xalq orasida islomiy tarbiya elementlari yashirin tarzda davom etgan.

5. Mustaqillik davri (XX asrning 2-yarmi—XXI asr):

• Milliy qadriyatlarning qayta tiklanishi: O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an’analalar tiklanib, ta’lim tizimida milliy tarbiya masalalariga katta e’tibor berila boshlandi.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 11. November 2024

- Etnopedagogika ilmiy tadqiqot sifatida: mustaqillikdan so‘ng etnopedagogika alohida ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanib, milliy tarbiya tizimi, xalq an’analari va qadriyatlari ilmiy jihatdan o‘rganilmoqda.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, o‘zbek xalq etnopedagogikasi asrlar davomida rivojlanib, millatning tarbiya tizimi va madaniy merosini shakllantirgan. Har bir tarixiy bosqichda bu pedagogika turli ta’sirlar ostida rivojlangan bo‘lsa-da, oo‘zining milliy o‘ziga xosligini saqlab qolgan. Bugungi kunda etnopedagogika milliy ta’lim va tarbiya tizimining ajralmas qismi sifatida yosh avlodni tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M. J. Mutalipova. Xalq pedagogikasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent. 2015.
2. I. A. Karimov. Buyuk maqsad yo‘lidan og‘ishmaylik. T.:O‘zbekiston,1993.
3. Z. Mirtursunov. O‘zbek xalq pedagogikasi. T.:Fan,1973.
4. K. Hoshimov, S. Ochil. O‘zbek pedagogikasi antalogiyasi. T.:O‘qituvchi.1995.
5. Wikipediya.

**Research Science and
Innovation House**